

Sinf: 4-sinf | Fan: Matematika | Yondashuv: STEM asosida

Mashg'ulotning maqsadi

O'quvchilar ma'lumotlarni yig'ish, guruhlash va uni turli usullarda (jadval, diagramma, grafik) taqdim etishni o'rganadilar. Ular haqiqiy hayotiy misollar asosida ma'lumotlarni o'qish va ulardan xulosa chiqarish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

Mashg'ulot davomiyligi

45 daqiqa

Interfaol resurslar

Platformadagi interfaol resurslar 4-sinf Matematika darsligidagi **Ma'lumotlarni taqdim etish usullari** mavzusidagi topshiriqlar asosida tayyorlangan.

Muhim va asosiy nazariy qism

Ma'lumotlarni taqdim etishning asosiy usullari:

Jadval – sonlar yoki so'zlar bilan ifodalanadi

Ustunli diagramma – ustunlar balandligi bilan taqqoslash osonlashadi

Doiraviy diagramma – butunni necha qismga bo'linganini ko'rsatadi

Chiziqli grafik – o'zgarishlarni vaqt davomida kuzatish uchun

Misol:

O'quvchilar haftalik darslarda ishtirok etgan kunlari:

Kun	O'quvchi soni
Dushanba	25
Seshanba	28
Chorshanba	26

→ Bu ma'lumotlar ustunli diagramma yoki chiziqli grafikda ko'rsatiladi.

Amaliy mashg'ulot: "Sinfdagi mashg'ulot tahlili"

Mashg'ulot maqsadi: O'quvchilar haqiqiy ma'lumotlarni yig'ib, ularni jadval va diagramma shaklida tasvirlash orqali vizual tahlil qilishni o'rganadilar.

Mashg'ulot bosqichlari:

1. Ma'lumot yig'ish (Texnologiya integratsiyasi):

– Har bir o'quvchi biror mavzuda so'rov o'tkazadi (masalan: sevimli sport turi, nonushta, o'qish vaqti)

– Natijalarni jadvalga yozadi

2. Diagramma yasash:

– Ustunli diagramma: rangli chiziqlar yordamida ustunlar chiziladi

– Doiraviy diagramma: doira shaklida bo'laklarga bo'linib ifodalanadi

3. Informatika integratsiyasi:

– Excel: o'quvchilar ma'lumotlarni kiritisa, Excel avtomatik diagramma yasaydi

STEM fanlar bilan integratsiyasi

Matematika

– Ma'lumot yig'ish, saralash va ifodalash

– Sonlarni taqqoslash, o'zgarishlarni aniqlash

Texnologiya

– Raqamli ma'lumotlarni aniqlik bilan chizishda mehnat madaniyati

– Grafikni chiroyli chizish, ranglar bilan ajratish

Informatika

– Excel: avtomatik ustunli va doira diagramma tuzish

Tabiiy fanlar

– Tabiiy hodisalarni kuzatish (ob-havo, hayvonlar, o'simliklar) va ma'lumotlarini grafik shaklida berish

Qiziqarli fakt

 Qadimgi misrliklar ham jadvallar orqali ob-havo, soliq va o'rmon ma'lumotlarini yozib borishgan!